



Shalola TURSUNOVA,

Stajyor-o'qituvchi, Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

E-mail: muhammadyusuf22xoji@gmail.com, Orcid: <https://orcid.org/0009-0008-1110-1970>

Dotsent F.Yo'ldoshev taqrizi asosida

MANIFESTATION OF PHLEGMATIC TEMPERAMENT IN SPOKEN AND WRITTEN FORMS OF SPEECH ACTIVITY

Annotation

This article examines the manifestation of phlegmatic temperament in spoken and written forms of speech activity from a psycholinguistic and pragmatic perspective. The study analyzes the influence of temperament on communicative behavior, speech production, language use, and discourse organization. Phlegmatic individuals are characterized by emotional stability, patience, self-control, and balanced communication, which are reflected in both oral and written speech. The research highlights the linguistic, phonetic, lexical, and pragmatic features of phlegmatic speakers, including moderate speech tempo, coherent discourse structure, logical expression of ideas, and the use of polite communication strategies. The article also explores the similarities and differences between spoken and written manifestations of phlegmatic temperament. The findings demonstrate that temperament significantly influences speech activity and contributes to the formation of individual communicative styles.

Keywords: Phlegmatic temperament, speech activity, spoken communication, written discourse, psycholinguistics, pragmatics, communicative behavior, language personality, discourse analysis, speech production, communication strategies, linguistic characteristics, temperament and language, oral speech, written communication.

ПРОЯВЛЕНИЕ ФЛЕГМАТИЧЕСКОГО ТЕМПЕРАМЕНТА В УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ ФОРМАХ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности проявления флегматического темперамента в устной и письменной формах речевой деятельности с психолингвистической и прагматической точек зрения. Исследуется влияние темперамента на коммуникативное поведение, процесс порождения речи, использование языковых средств и организацию дискурса. Показано, каким образом такие качества флегматической личности, как эмоциональная устойчивость, терпеливость, уравновешенность и самоконтроль, отражаются в устной и письменной речи. Особое внимание уделяется логической последовательности высказываний, умеренному темпу речи, вежливым коммуникативным стратегиям и точности выражения мыслей. Результаты исследования подтверждают, что темперамент оказывает существенное влияние на речевую деятельность и является важным фактором формирования индивидуального коммуникативного стиля личности.

Ключевые слова: флегматический темперамент, речевая деятельность, устная речь, письменная речь, психолингвистика, прагматика, коммуникативное поведение, языковая личность, дискурс, коммуникативная стратегия, порождение речи, индивидуальный стиль.

NUTQIY FAOLIYATNING SO'ZLASHUV VA YOZMA SHAKLLARIDA FLEGMATIK TEMPERAMENTNING NAMOYON BO'LISHI

Аннотация

Mazkur maqolada nutqiy faoliyatning so'zlashuv va yozma shakllarida flegmatik temperamentning namoyon bo'lish xususiyatlari psixolingvistik va pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda temperamentning kommunikativ xulq-atvor, nutq hosil qilish jarayoni, til birliklaridan foydalanish hamda diskursni tashkil etishga ta'siri yoritilgan. Flegmatik shaxslarning hissiy barqarorlik, sabr-toqat, vazminlik va o'zini nazorat qila bilish kabi sifatleri og'zaki hamda yozma nutqda qanday aks etishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, ularning nutqida mantiqiy izchillik, meyoriy nutq sur'ati, muloyim muloqot strategiyalari va fikrni aniq ifodalash kabi xususiyatlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari temperamentning nutqiy faoliyatga sezilarli ta'sir ko'rsatishini hamda individual kommunikativ uslubning shakllanishida muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: flegmatik temperament, nutqiy faoliyat, so'zlashuv nutqi, yozma nutq, psixolingvistik, pragmatika, kommunikativ xulq-atvor, til shaxsi, diskurs, muloqot strategiyasi, nutq hosil qilish, individual uslub.

Kirish. Til nafaqat fikrni ifodalash vositasi, balki shaxsning ichki dunyosi, ruhiy holati, xarakteri va temperamentini namoyon etuvchi muhim kommunikativ vosita hamdir. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari uning nutqiy faoliyatida, xususan, so'zlashuv va yozma nutqida yaqqol aks etadi. Shu jihatdan temperament va nutq o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bugungi psixolingvistik va pragmatiklikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat insonning fikr almashish, axborot uzatish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish jarayonidagi

asosiy vositasi sanaladi. U og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'lib, har bir shakl o'ziga xos lingvistik, psixologik va kommunikativ xususiyatlarga ega. So'zlashuv nutqi tezkorlik, bevositalik va vaziyatga bog'liqligi bilan xarakterlansa, yozma nutq puxta rejalashtirilganligi, mantiqiy izchilligi va tahrir qilish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Temperament insonning tug'ma psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, uning hissiy holati, xulq-atvori va kommunikativ uslubiga ta'sir ko'rsatadi. Temperamentning sangvinik, xolerik, melanxolik va flegmatik turlari ajratib

ko'rsatilgan. Ularning har biri nutqiy faoliyatda o'ziga xos belgilar bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa, flegmatik temperament vakillari xotirjamligi, hissiy barqarorligi, vazminligi, mulohazakorligi va o'zini nazorat qila bilishi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar ularning muloqot strategiyasi, nutq sur'ati, fikrni ifodalash usuli va yozma matnlarni yaratish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Flegmatik shaxslarning so'zlashuv nutqi odatda sekin, ravon, mantiqiy va hissiy jihatdan muvozanatli bo'ladi. Ular suhbat jarayonida shoshilinch xulosalar chiqarmaydilar, fikrlarini puxta o'ylab bayon qiladilar hamda muloqotda ziddiyatlardan qochishga intiladilar. Yozma nutqda esa bunday shaxslar fikrlarning izchil bayon qilinishi, matnning mantiqiy tuzilishi, grammatik me'yorlarga rioya etilishi va uslubiy aniqlik bilan ajralib turadilar. Shuning uchun ham flegmatik temperamentning nutqiy faoliyatdagi namoyon bo'lish mexanizmlarini o'rganish til va shaxs munosabatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va kommunikatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida shaxsning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nutqiy faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan insonning psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'lib, temperamentning kommunikativ jarayondagi o'rni aniqlash ta'lim, psixologiya, lingvistika va pedagogika sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, flegmatik temperamentga ega shaxslarning nutqiy faoliyatini o'rganish ularning kommunikativ imkoniyatlarini to'g'ri baholash, individual yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish hamda samarali muloqot strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi flegmatik temperamentning nutqiy faoliyatning so'zlashuv va yozma shakllarida namoyon bo'lish xususiyatlarini psixolingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida flegmatik shaxslarning og'zaki va yozma nutqidagi lingvistik, kommunikativ hamda pragmatik belgilar aniqlanadi, ularning nutqiy xulq-atvori va muloqot strategiyalari yoritiladi. Shuningdek, temperament va nutqiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy-nazariy asosda izohlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutqiy faoliyat va temperament o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish psixologiya, psixolingvistik, sotsiolingvistik hamda pragmatolingvistik fanlarining tutash nuqtasida shakllangan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, xususan, temperamentning nutq jarayoniga ta'siri masalasi ko'plab xorijiy va respublika olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa-da, flegmatik temperamentning nutqiy faoliyatning so'zlashuv va yozma shakllarida namoyon bo'lishi masalasi hali yetarli darajada o'rganilmagan.

Temperament haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar qadimgi yunon olimi Hippocrates nomi bilan bog'liq bo'lib, u insonlarning ruhiy va jismoniy xususiyatlarini to'rtta asosiy temperament turi orqali izohlashga harakat qilgan. Keyinchalik Galen ushbu nazariyani rivojlantirib, temperamentning inson xulq-atvori va faoliyatiga ta'sirini asoslab bergan. Mazkur klassik nazariyalar zamonaviy psixologik tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos vazifasini o'taydi [1].

XX asrda temperament muammosi rus va g'arb psixologlari tomonidan keng tadqiq etildi. Xususan, Ivan Pavlov temperamentni oliy nerv faoliyati tiplari bilan bog'lab o'rgangan va temperamentning fiziologik asoslarini ishlab chiqqan. Olimning fikricha, insonning nutqiy faolligi va muloqot uslubi nerv tizimining kuchi, muvozanatli hamda harakatchanligiga bog'liq. Bu qarashlar temperament va nutqiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda izohlash imkonini beradi.

Psixologik adabiyotlarda temperamentning kommunikativ faoliyatga ta'siri masalasi Hans Eysenck tomonidan ham tadqiq etilgan. U shaxsning ekstraversiya va introversiya darajalari kommunikativ xulq-atvorni belgilashini ta'kidlaydi. Eysenck nazariyasiga ko'ra, flegmatik temperament introvert tipga yaqin bo'lib, bunday shaxslar vazminlik, hissiy barqarorlik va muloqotdagi ehtiyotkorlik bilan ajralib turadi [2].

Psixolingvistik sohasida Lev Vygotsky, Alexander Luria va Alexei Leontievning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular nutq faoliyatini inson tafakkuri va psixik jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganib, nutqning shakllanishida individual psixologik omillarning muhim o'rin tutishini ko'rsatib berganlar. Ayniqsa, Vygotskiyning nutq va tafakkur birligi haqidagi qarashlari temperamentning nutqiy faoliyatdagi namoyon bo'lishini tushuntirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [3].

Nutqiy faoliyat nazariyasini rivojlantirishda Alexei Leontievning hissasi katta bo'lib, u nutqni inson faoliyatining alohida turi sifatida talqin qilgan. Olim nutqning kommunikativ, kognitiv va regulativ funksiyalarini ajratib ko'rsatadi. Bu esa temperamentning nutq faoliyatiga ta'sirini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi.

Til va shaxs munosabatlari masalasi zamonaviy lingvistika va pragmatika doirasida ham keng tadqiq etilgan. George Yule, Geoffrey Leech hamda Deborah Schiffrinlar muloqot jarayonida nutqiy strategiyalar, pragmatik ma'nolar va kommunikativ xulq-atvor masalalarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari temperamentning pragmatik xususiyatlarini, xususan, flegmatik shaxslarning muloyimlik strategiyalari, konfliktlardan qochish tendensiyasi va ehtiyotkor kommunikativ uslublarini tahlil qilishda muhim nazariy manba hisoblanadi [4].

Xorijiy tadqiqotchilar E. G. Conture, E. M. Kelly va T. A. Walden tomonidan olib borilgan izlanishlarda temperamentning nutq va til rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotchilar temperament nutq sur'ati, kommunikativ faollik va tilni o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy dalillar bilan asoslab berganlar. Shuningdek, Mc Croskey kommunikativ xususiyatlar hamda temperament o'rtasidagi bog'liqlikka bag'ishlangan ishlari flegmatik temperamentning nutqiy xulq-atvorini o'rganishda muhim ahamiyatga ega [5].

O'zbek tilshunosligida til va shaxs munosabatlari, til shaxsi hamda nutqiy faoliyat masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, o'zbek psixolingvistikasida nutq faoliyatining psixologik asoslari, kommunikativ kompetensiya va til shaxsining shakllanishiga oid nazariy qarashlar ishlab chiqilgan. Biroq flegmatik temperamentning so'zlashuv va yozma nutqdagi namoyon bo'lishini maxsus tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar deyarli uchramaydi [6].

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, temperament va nutqiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik umumiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, flegmatik temperamentning og'zaki va yozma nutqdagi lingvistik, pragmatik hamda psixolingvistik xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot flegmatik temperamentning nutqiy faoliyatdagi namoyon bo'lish mexanizmlarini o'rganish orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda nutqiy faoliyatning so'zlashuv va yozma shakllarida flegmatik temperamentning namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganish maqsadida tavsifiy va qiyosiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy vazifasi flegmatik temperamentga ega shaxslarning nutqiy faoliyatda qanday lingvistik va psixologik

xususiyatlar bilan namoyon bo'lishini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot jarayonida kvantitativ va sifat yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Ma'lumotlar yig'ish uchun og'zaki nutq testi va yozma topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Og'zaki nutq jarayonida ishtirokchilarga erkin mavzuda monolog tarzida fikr bildirish topshirildi. Yozma nutq shaklida esa esse yoki qisqa matn yozish vazifasi berildi.

Baholash mezonlari nutqiy faoliyatning asosiy komponentlariga asoslandi: ravonlik, grammatik to'g'rilik, lug'aviy boylik, izchillik va mazmunni tushunish hamda ifodalash. Har bir ko'rsatkich bo'yicha ball tizimi ishlab chiqilib, natijalar o'rtacha qiymat va foiz ko'rinishida hisoblab chiqildi.

Tadqiqot tanlanmasi flegmatik temperamentga ega talabalar va taqqoslash uchun boshqa temperament vakillaridan iborat guruhni o'z ichiga oldi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash asosida tanlab olindi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqotda nutqiy faoliyatning so'zlashuv va yozma shakllarida flegmatik temperamentga ega talabalarining lingvistik xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlil jarayonida flegmatik guruh natijalari boshqa temperament vakillari bilan qiyosiy asosda o'rganildi.

Og'zaki nutq tahlili shuni ko'rsatdiki, flegmatik temperamentga ega talabalar grammatik to'g'ri va fikrni tushunarli ifodalash ko'rsatkichlarida nisbatan yaxshi natija qayd etganlar. Ular nutq jarayonida sekin, lekin aniq gapirish uslubini namoyon etdilar.

Ravonlik va talaffuz to'g'riligi esa flegmatik talabalar sangvinik guruhga nisbatan pastroq natija ko'rsatdilar. Bunga ularning nutq jarayonida ehtiyotkorlik bilan fikr shakllantirishi va tezkor kommunikativ reaksiyaning nisbatan sustligi sabab bo'ldi.

Flegmatiklar nutq mazmunini mantiqiy tuzish va grammatik jihatdan to'g'ri jumla qurish bo'yicha ustunlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu ularning tahliliy fikrlashga moyilligi bilan izohlanadi.

Yozma nutq tahlilida flegmatik temperament vakillari yanada yuqori natijalarni ko'rsatdilar. Ular matn tuzilishida izchillik, grammatik aniqlik va fikrni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalashda barqarorlik namoyon etdilar.

Flegmatik talabalar yozma ishlarida murakkab grammatik strukturalardan foydalanishga harakat qilganlari va matn puxta rejalashtirib yozganlari kuzatildi. Bu esa ularning yozma nutqda og'zaki nutqqa nisbatan samaraliroq ishlashini ko'rsatadi.

Biroq, ijodiylik va tezkor fikr ifodalash jihatidan ular nisbatan sustroq natija qayd etganlar. Yozma ishlarni bajarish vaqti ham sangvinik guruhga qaraganda ko'proq bo'lgan.

Umumiy natijalarga ko'ra, flegmatik temperamentga ega talabalar:

-grammatik to'g'rilik va izchillikda yuqori natija ko'rsatgan;

-yozma nutqda og'zaki nutqqa nisbatan yaxshiroq natija qayd etgan;

-og'zaki nutqda esa ravonlik va talaffuz bo'yicha biroz sustroq bo'lgan.

Sangvinik guruh bilan solishtirganda, flegmatiklar tezkor kommunikatsiyada emas, balki aniqlik va puxtalik talab etiladigan nutqiy faoliyat turlarida ustunlikka ega ekanligi aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, flegmatik temperament nutqiy faoliyatda ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: og'zaki nutqda ehtiyotkor va sekin, yozma nutqda esa tizimli va grammatik jihatdan aniq uslub ustunlik qiladi. Bu esa ularning kommunikativ strategiyasi asosan tahlil qilish va rejalashtirishga asoslanganligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, nutqiy faoliyatning so'zlashuv va yozma shakllarida flegmatik temperamentning namoyon bo'lish xususiyatlari quyidagicha umumlashtirildi.

Birinchidan, flegmatik temperamentga ega talabalar og'zaki nutq jarayonida sekin, lekin barqaror va izchil fikr ifodalash uslubini namoyon etadilar. Ular nutq davomida grammatik to'g'rilikka ko'proq e'tibor qaratadilar, biroq ravonlik va tezkor kommunikativ reaksiyalar bo'yicha nisbatan pastroq natija ko'rsatadilar.

Ikkinchidan, yozma nutq shaklida flegmatik talabalar yuqori darajadagi grammatik aniqlik, mantiqiy izchillik va strukturaviy puxtalikni namoyon etadilar. Bu holat ularning fikrlash jarayoni tahliliy va rejalashtirilgan tarzda kechishini ko'rsatadi.

Uchinchidan, og'zaki va yozma nutq turlari o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lib, flegmatiklar yozma nutqda og'zaki nutqqa nisbatan samaraliroq natija ko'rsatadi. Bu esa ularning kommunikativ faoliyatida yozma ifoda shakli ustunligini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, flegmatik temperament nutqiy faoliyatda aniqlik, puxtalik va mantiqiylikka asoslangan kommunikativ strategiya bilan tavsiflanadi.

Takliflar:

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Ingliz tili o'qitish jarayonida flegmatik talabalar uchun og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv mashg'ulotlar ko'proq joriy etilishi lozim.

Yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda flegmatik talabalar uchun rejalashtirilgan yozma topshiriqlar, esse yozish va matn tahlili kabi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

O'qituvchilar talabalarining temperament xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni qo'llashlari zarur.

ADABIYOTLAR

1. Amberg, J. S., & Vause, D. J. (2009). American English: History, Structure, And Usage (Pp. 1-10). Cambridge, Ma: Cambridge University Press.
2. Arsjad, M. G., & Mukti, U. S. (1988). Pembinaan Kemampuan Berbicara Bahasa Indonesia. Erlangga.
3. Brown, H.D. (1994). Teaching By Principles: An Interactive Approach To Language Pedagogy. Englewood Cliffs, Nj: Prentice Hall Regents.
4. Brown, H. D. (2001). Teaching By Principle An Interactive Approach To Language Pedagogy. San Francisco: Longman
5. Ewen, B.R. (2003). An Introduction To Theories Of Personality, Sixth Edition. New Jersey: Lawrence Erlbaum, Associates Publishers.
6. Eysenck, H. J. (1947). Dimensions Of Personality (Vol. 5). Transaction Publishers.